



YOSHLAR VA ILM-FAN

Ilmiy ommabop, o'quv-
metodik va ma'naviy-
ma'rifiy jurnal

3-SON



t.me/yoshlareduuz





YOSHLAR VA LM-FAN


(3-SON)

МОЛОДЕЖЬ И НАУКА

(3-ВЫПУСК)

YOUTH AND SCIENCE

(3-ISSUE)



2025-yil

Jurnal tahririyati

Tahrir hay'ati raisi

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan
va innovatsiyalar vaziri,
texnika fanlari doktori professor

Bosh muharrir

Akramov Abdumalik Abdumutalovich,
Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy
faolligini oshirish markazi direktori,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o'rinbosari

Mirsolieva Muhabbat To'xtasinovna,
Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy
faolligini oshirish markazi bo'lim boshlig'i,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir hay'ati a'zolari

Tabiiy fanlar bo'yicha

1. Y. Abdusoatov
2. M. Ibragimov
3. J. Axmedov
4. Sh. Saidmuratov
5. L. Abduraximova

Gumanitar fanlar bo'yicha

1. R. Xudayberganov
2. F. Farxodov
3. G. Jo'rayeva
4. Sh. Shodmonova
5. N. Abdusamatova
6. A. Amonov

Texnika fanlari bo'yicha

1. T. Tursunmuratov
2. D. Baratov
3. B. Igamberdiyev
4. S. Urinov
5. S. Ashurova

Yoshlar va ilm-fan yo'nalishi bo'yicha

1. L. Mingishov
2. A. Qudratov
3. M. Boysariyev
4. U. Giyosova
5. I. Bobojonov

**“YOSHLAR VA ILM-FAN” jurnali
JAMOATCHILIK KENGASHI
a'zolarining
TARKIBI**

- 1. Rajabov Sardor Baxtiyorovich** – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari
- 2. Sa'dullayev Alisher Zafar o'g'li** – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Direktori
- 3. Kasimov Nodir Ulug'ovich** – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar bosqarmasi boshlig'i
- 4. Daminov Asqarali Davlatovich** – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
- 5. Zayniddin Xudoyberdiyev** – Professional ta'limni rivojlantirish instituti direktori
- 6. Suvonov Ilhom Abdixalilovich** – Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti Ilmiy kotibi
- 7. Bo'tayeva Farida Qo'ziyevna** – O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi raisining o'rinbosari
- 8. Rahmonov Norim Razzakovich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Yoshlar masalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar departamenti rahbari
- 9. Shermanov Eldor Uralovich** – Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti rektori

AMIR TEMURNING “TEMUR TUZUKLARI” ASARIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA IJTIMOY ADOLAT PRINSIPLARI

Ergashov Zuhriddinjon Zavqiddinjonovich,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

Nuriddin Qolqanov,
siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida ifodalangan boshqaruv prinsiplari, ijtimoiy adolat va tartib-intizom tamoyillarining mazmunini o'rganishga bag'ishlangan. Asarda bayon etilgan g'oyalar zamonaviy siyosiy-ma'muriy tizimlar bilan solishtirib o'rganiladi hamda ularning bugungi dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Amir Temur qarashlari nafaqat o'z davrida, balki hozirgi kunda ham barqarorlik, adolat va samarali boshqaruv uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqolada, shuningdek, “Temur tuzuklari”ning yoshlar tarbiyasidagi o'rnini va hozirgi avlod uchun ibratli jihatlari ham yoritiladi.



Kalit so'zlar: Amir Temur, Temur tuzuklari, davlat boshqaruvi, ijtimoiy adolat, siyosiy qarashlar, tarixiy meros, tartib-intizom, zamonaviy boshqaruv, yoshlar tarbiyasi.

Annotation: This article is dedicated to the study of the principles of governance, social justice, and discipline expressed in Amir Temur's work “Temur's Code”. The ideas presented in the work are analyzed in comparison with modern political-administrative systems, and their relevance in addressing today's urgent social issues is revealed. The results of the study show that Amir Temur's views can serve as an important theoretical foundation not only in his own time but also for ensuring stability, justice, and effective governance in the present day. The article also highlights the role of “Temur's Code” in the upbringing of youth and its exemplary aspects for the modern generation.

Keywords: Amir Temur, Temur's Code, state governance, social justice, political views, historical heritage, discipline, modern governance, youth education.

Аннотация: Настоящая статья посвящена изучению принципов государственного управления, социальной справедливости и дисциплины, изложенных в труде Амира Тимура “Кодекс Тимура”. Идеи, представленные в этом произведении, анализируются в сравнении с современными политико-административными системами, а также раскрывается их актуальность в решении насущных социальных проблем. Результаты исследования показывают, что взгляды Амира Тимура могут служить важной теоретической основой не только в его эпоху, но и в наше время для обеспечения стабильности, справедливости и эффективного управления. В статье также освещается роль “Кодекса Тимура” в воспитании молодежи и его поучительные аспекты для современного поколения.

Ключевые слова: Амир Темура, Кодекс Тимура, государственное управление, социальная справедливость, политические взгляды, историческое наследие, дисциплина, современное управление, воспитание молодежи.

Kirish. Buyuk sarkarda va dono davlat arbobi Amir Temur nomi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun jahon tarixida chuqur iz qoldirgan. Uning siyosiy va harbiy salohiyati, adolatli boshqaruv tamoyillari, xalq farovonligiga xizmat qiluvchi g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Ayniqsa, Amir Temurning "Temur tuzuklari" nomli asari davlat boshqaruvi, intizom, rahbar va mansabdorlarga qo'yilgan talablar, xalq bilan munosabatlar borasida bebaho manba hisoblanadi. Ushbu asar orqali biz buyuk davlat qurish, uni barqaror yuritish, ichki va tashqi siyosatni to'g'ri yo'naltirish kabi muhim masalalarga o'z davrida qanday yondashilganini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi globallashuv, tezkor siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar davrida Amir Temur ta'limotini, ayniqsa, "Temur tuzuklari"da bayon etilgan boshqaruv prinsiplarini o'rganish va ularni tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada asarning zamonaviy boshqaruv tizimlari bilan uyg'un jihatlari ochib berilib, tarixiy merosimizning hozirgi kun uchun ham foydali tajriba maktabi ekanligi asoslab beriladi.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, uzoq yillar davomida e'tibordan chetda qolgan tarixiy merosimizga, jumladan, Temuriylar davri tarixi, madaniyati va siyosiy merosiga yangicha yondashuv shakllandi. Amir Temur shaxsi va u asos solgan davlat tizimi, shuningdek, uning hayoti va faoliyatini o'zida mujassam etgan "Temur tuzuklari" asari milliy taraqqiyotimizda o'ziga xos o'rin egallay boshladi. Bu asar xalqimizning tarixiy xotirasi, siyosiy tafakkuri va boshqaruv madaniyati rivojida muhim manbaga aylandi.

1993 yilning aprel oyida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bir guruh ijodkorlar bilan bo'lgan uchrashuvda aytgan so'zlari bugungi kunda ham dolzarb yangraydi: *"Amir Temur davrini boshqattan o'rganishimiz lozim. Nega deganda, Amir Temur tuzuklarini o'qisam, xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo'laman."* [1] Mazkur fikr aslida tarixiy merosga bo'lgan e'tibor, uni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish zaruratini ochiq ifodalaydi. Islom Karimov ushbu so'zlari bilan faqat tarixiy shaxs haqida emas, balki butun bir davr, boshqaruv uslubi, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar tizimini anglatayotgan edi. Temur tuzuklarida ifodalangan asosiy g'oyalar – adolat, intizom, ilmga e'tibor, kuchli davlat tuzish, xalq manfaatini ustuvor qo'yish kabi tamoyillar bugungi zamon uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Shu jihatdan olib qaraganda, Islom Karimovning *"bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo'laman"* degan iborasi bejiz emas. Unda davlatni boshqarish, jamiyatni tashkil etish, ichki va tashqi siyosatni yuritish bo'yicha chuqur fikrlar bayon etilgan. Darhaqiqat, tarix o'zgararmaydi, u faqat zamon ruhi bilan yangicha talqin etiladi. Har bir davr tarixiy tajribaga tayanar ekan, u orqali o'z muammolariga yechim izlaydi.

Mana shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyada (1996-yil 24-oktyabr) so'zlagan quyidagi fikrlarini keltirib o'tmoqchiman: *"Ming afsuski, biz boshimizdan o'tkazgan mustabid tuzum tufayli shunday bir ahvolga tushib qolgan edikki, ulug' ajdodimizning tarixi va faoliyatini, bashariyat rivojiga qo'shgan hissasini bugungi kunda xorijda – AQSh, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Turkiya, Eron, Pokiston va boshqa mamlakatlarda bizning o'zimizdan ko'ra ko'proq bilishadi. Bizlar, ya'ni Amir Temurning vatani bo'lmish shu zaminda o'sgan odamlar uning faoliyatini juda oz bilamiz."* [1] Mazkur yondashuvlar natijasida mamlakatimizda tarixiy merosga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, milliy o'zlikni anglash, buyuk ajdodlar faoliyatini chuqur o'rganish yo'lida muhim islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligi davrida Amir Temur merosining o'rganilishi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Keyingi yillarda esa, Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi jarayon yangi bosqichga ko'tarilib, ilmiy-tadqiqotlar chuqurlashdi, tarixiy manbalar va qadriyatlarni tiklash yo'lida izchil sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Asosiy qism. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: *"Amir Temur vorislari bo'lmish xalqimiz uchun*

buyuk bobokalonimizning har bir g'oyasi, har bir o'gitini hayotiy qo'llanma sifatida qabul qilishimiz lozim. Temur Tuzuklari bizga kelajakni harpo etishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi", degan edi. [2] Ushbu yondashuv asosida davlat rahbari boshchiligidagi bir qancha muhim siyosiy va ma'naviy yo'nalishlarda izchil islohotlar amalga oshirildi. Temur tuzuklarida ilgari surilgan "kuch – adolatda" [3] tamoyili asosida davlat boshqaruvi tizimida ham tub islohotlar boshlandi. 2017-yilda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi [4] tashkil etildi va shu orqali davlat xizmatchilarining malakasini oshirish, shaffoflik va samaradorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Temuriylar davrida ilm-fan va ta'lim rivojiga katta e'tibor berilganidek, bugungi kunda ham yoshlarning ilmga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi qabul qilindi [5]. Dastur doirasida yoshlarning innovatsion g'oyalari, tadbirkorlik tashabbuslari moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. Eng avvalo, milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklash siyosati kuchaydi. Amir Temur siymosini yanada chuqurroq o'rganish, Temuriylar merosini ilmiy jihatdan tadqiq qilish maqsadida respublika va xalqaro miqyosda konferensiyalar, ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazila boshlandi. Xususan, 2020-yilda Fanlar akademiyasi huzuridagi Tarix instituti tomonidan "Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda" mavzusida xalqaro anjuman tashkil etildi. Shuningdek, Amir Temur merosini xalqaro miqyosda targ'ib qilish, tarixiy shaharlar – Samarqand va Shahrisabzni global madaniy markazlar sifatida tanitish ishlari olib borilmoqda. Amir Temur muzeyining faoliyati kengaytirilib, xorijiy delegatsiyalar va yoshlar uchun ko'rgazmalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yo'lga qo'yildi.

Amir Temur shaxsi va uning siyosiy-ma'muriy qarashlari nafaqat Sharq olimlari, balki G'arb mutaxassislari tomonidan ham katta e'tibor bilan o'rganilgan. Xususan, "Temur tuzuklari" asari ko'plab yevropalik sharqshunoslar va tarixchilar tomonidan qadrlangan va tahlil etilgan.

Fransuz sharqshunosi Clément Huart Temur tuzuklarini sharqona siyosiy tafakkurning yorqin namunasiga tenglab, bu asarda "davlat va jamiyat boshqaruvi masalalari chuqur nazariy yondashuv hamda amaliy tajriba asosida yoritilganini" ta'kidlaydi. [6]

Nemis sharqshunosi va tarixchisi Vasily Bartold (Barthold) esa ushbu asarni "Sharq tarixidagi eng muhim siyosiy-huquqiy manbalardan biri" deya baholagan. Uning fikricha, Temur tomonidan yozilgan tuzuklar orqali biz nafaqat o'sha davr boshqaruv tizimini, balki o'sha jamiyatning ichki ijtimoiy munosabatlarini ham anglashimiz mumkin. [7]

Shuningdek, ingliz sharqshunosi Annette Beveridge tomonidan amalga oshirilgan "Tuzuk-i Temuriy" asarining ingliz tiliga tarjimasi bu asarning G'arb ilmiy doiralarida keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Beveridgening ta'kidlashicha, "Temurning tuzuklari – bu buyuk imperator tafakkurining oy-nasidir. Asarda davlat boshqaruvida adolat, intizom va bilimga tayangan markazlashgan yondashuv yaqqol namoyon bo'ladi". [8]

Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, "Temur tuzuklari" asari faqat tarixiy manba bo'lib qolmay, balki yuksak siyosiy tafakkur namunasi sifatida jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan ham tan olingan. Bu holat Amir Temur merosining global miqyosdagi qadri va dolzarbligini yana bir bor isbotlaydi.

Ta'kidlash joizki, Amir Temur shaxsi G'arbda nafaqat zamonaviy olimlar tomonidan, balki u hayotligidayoq e'tiborga olingan va ayrim tarixiy manbalarda tilga olingan. Fransiyada Sohibqiron hayotligidayoq, paydo bo'lgan ilk asarlardan biri Fransiya Marshali Jan II Busiko (1365-1421) qalamiga mansub bo'lib, u "Le Livre des faits du marechal Boucicaut" ("Marshal Busiko amalga oshirgan ishlar") deb ataladi. Busiko o'z kitobining XXXVII bobida Amir Temur shaxsiga to'xtalib, Sohibqiron va uning qo'shini haqida shunday yozadi: "Amir Temur bag'oyat mard odam edi va taqdir uni yana bir oz qo'llab-quvvatlaganida butun yer yuzini zabt etardi, ammo bu unga nasib etmadi. Zero, hammaga ma'lum bir maqolda aytilganidek, "har bir ish Xudoning irodasi bilan". Biroq, u qurol bilan ulkan ishni amalga oshirdi, u o'ttiz yil davomida na jang qilishdan to'xtadi, na bir shaharda tuzukroq tin oldi, aksincha, har doim mo'jizakor qo'shini bilan dalayu dashtda yirdi va lashkarlari

orasida shunday qat'iy tartib urnatdiki, ularning kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan barcha narsani o'zi bilan birga olib yurdi. U amalga oshirgan mo'jizalar, u kechib o'tgan ulkan daryolar va uning mehnatda toblangan odamlari qilgan ishlar haqida maftunkor asarlar yaratish mumkin" [9, 50-bet].

Fransuz tarixchisi tomonidan keltirilgan bu fikrlar Sohibqiron shaxsiyatining o'ziga xos jihatlari ochib beradi. Unda Temurning jasorati, strategik salohiyati va global miqyosdagi harbiy yurishlarga qodirligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, *"agar taqdir biroz ko'proq qo'llab-quvvatlaganida, u butun yer yuzini zabt etardi"* degan ibora orqali tarixchi buyuk sarkardaning imkoniyatlari cheksiz bo'lganini e'tirof etadi.

Shuningdek, harbiy yurishlarning uzluksiz davom etgani, uzoq yillar tinimsiz janglarda qatnashgani va bir joyda uzoq yashamaganligi, uning harbiy hayotga butunlay bag'ishlangan shaxs bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa zamonaviy harbiy tarixda ham kam uchraydigan holatlardan biridir.

Alohida e'tiborga loyiq jihat – qo'shinlarida o'rnatilgan qat'iy tartib-intizom, har bir harakat oldindan puxta rejalashtirilgan bo'lib, yurishlar davomida barcha zarur vositalar bilan ta'minlanganlik haqida ta'kididir. Bu, o'z navbatida, markazlashgan boshqaruv va harbiy tashkiliy salohiyatning yuksak darajada bo'lganini ko'rsatadi.

Yakunida esa, yurishlar, daryolarni kechib o'tish, qurolli kuchlarning mehnatkashligi va erishilgan yutuqlar san'at va adabiyotda aks ettirishga loyiq ekani qayd etilgan. Bu o'rinda nafaqat tarixiy, balki madaniy qiymat ham o'z ifodasini topadi.

Tajriba (Tahlil) qismi. Shu asosda aytish mumkinki, ushbu baholash – shaxsiyat, harbiy iqtidor, intizom va strategiyaning uyg'unlashgan namunasi sifatida tarixiy manbalar orqali chuqur tahlil qilindi. Bu fikrlar orqali faqatgina shaxsiy qahramonlik emas, balki bir davlat rahbari sifatidagi ulug'vor fazilatlar ham yorqin namoyon bo'ladi.

Temur tuzuklarida yozilishicha, *"Saltanat ishlarining to'qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur"* [3], deya bildirgan fikrlarida esa haqiqiy dono davlat rahbarlariga xos bo'lgan ilm-u donish sohibi ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari *"O'zga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, g'anim lashkarlarini sindirish, dushmanni tuzoqqa tushirish, muxoliflarni (ko'nglini ovlab) do'stga aylantirish, do'st-dushman orasida muomala, murosayu madora qilish xususida ushbu kengash va tadbirlarni qo'lladim"*. [3] Bu amalga oshirilgan ishlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, oqilona amalgam oshirilgan siyosat deya olamiz.

Amir Temur tomonidan ilgari surilgan siyosiy tamoyillar va davlat boshqaruvi haqidagi fikrlar nafaqat o'z zamonasining ijtimoiy-siyosiy hayotiga, balki keyingi avlodlar, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashi va hayotga bo'lgan munosabatiga ham chuqur ta'sir ko'rsatgan. Uning *"Saltanat ishlarining to'qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur"* degan so'zlari hayotiy qarorlarni qabul qilishda aql-idrok va maslahatga asoslanish lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa yoshlar ongida faqat kuch bilan emas, balki bilim, tafakkur va oqilona yondashuv orqali muvaffaqiyatga erishish mumkinligi haqida chuqur tushuncha shakllantiradi.

Temur ta'limoti yoshlar uchun ibrat maktabi sifatida qaralishi mumkin, chunki u faqat harbiy g'alabalarni emas, balki ma'naviy yetuklik, mas'uliyat, fidoyilik, dono qarorlar qabul qilish kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Bu esa zamonaviy ta'lim jarayonida tarbiyaviy vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Temurning hayoti va faoliyati, ayniqsa uning siyosiy tafakkuri, bugungi yoshlar uchun nafaqat tarixiy meros, balki hayotiy yo'l-yo'riq, mustahkam iroda va vatanparvarlik ruhining timsolidir.

Shu jihatdan olib qaranganda, Temur ta'limoti yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda, ularning mustaqil fikrlashi, mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilishi, keng dunyoqarashga ega bo'lishi yo'lida muhim tarbiyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu tamoyillar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, yoshlarda rahbarlik salohiyatini, liderlik fazilatlarini rivojlantirishda asosiy omillardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Bugungi kun rahbarlari, davlat xizmatchilari va yosh liderlar uchun Temur tuzuklarida aks etgan boshqaruv madaniyati bir necha yo'nalishda dolzarb bo'lib, ular orasida ayniqsa "hisobdorlik" va "maslahat asosida qaror qabul qilish" [10] tamoyillari ajralib turadi. Sohibqiron har bir davlat amaldorining faoliyatini yillik natijalar asosida baholagan va ular ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga harakat qilgan. Bu esa bugungi demokratiya, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari bilan bevosita hamohangdir.

Bundan tashqari, Temur tuzuklarining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ham bugungi kunda alohida e'tiborga loyiqdir. Temur o'z zamonasidagi yoshlarni harbiy va ilmiy jihatdan yetuk kadrlar sifatida tayyorlashga alohida e'tibor bergan, ularni tajriba orqali yetuk shaxslar sifatida tarbiyalagan. Bu yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida, xususan, "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi, Prezident maktablari va yoshlar akademiyasi kabi loyihalarda amalda o'z aksini topmoqda. Tarixiy ildizga tayangan holda yoshlar bilan ishlashda Temuriylar davri qadriyatlarining qayta tiklanishi, ular asosida vatanparvar, bilimli va mas'uliyatli shaxslarni voyaga yetkazish strategiyasini yanada mustahkamlaydi.

Demaki, "Temur tuzuklari" nafaqat tarixiy, balki hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy hayotining dolzarb masalalariga yechim topishda nazariy va amaliy manba sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, global siyosiy o'zgarishlar, yangi rahbarlar avlodining shakllanishi davrida, bu asar yoshlar uchun ibrat maktabi, milliy tafakkur va boshqaruv madaniyatini o'rgatish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Amir Temur tomonidan yozilgan "Temur tuzuklari" asari o'z davrida kuchli markazlashgan davlat boshqaruvining nazariy va amaliy asoslarini yaratgan, chuqur fikrlangan siyosiy-huquqiy manba sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan. Mazkur asarda ilgari surilgan asosiy tamoyillar – mas'uliyatli rahbarlik, adolatli boshqaruv, maslahatlashuvga asoslangan qaror qabul qilish, xalq bilan muloqot, intizom, bilimga e'tibor, harbiy va siyosiy strategiya – bugungi zamonaviy boshqaruv tizimlari uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, Amir Temur qarashlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati beqiyos bo'lib, u bugungi kun avlodi uchun kuchli irodali, fidoyi, bilimli va vatanparvar shaxs sifatida shakllanishda ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. Temur ta'limotining zamonaviy davlat siyosati va ta'lim strategiyalari bilan uyg'unlashgani uning g'oyalari abadiy qadriyatga aylanganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Temur tuzuklari" asari faqat tarixiy yodgorlik emas, balki hozirgi va kelajak avlodlar uchun siyosiy tafakkur, rahbarlik madaniyati va milliy o'zlikni anglashda bebaho manbadir. Shu bois, uni chuqur o'rganish, tahlil qilish va amaliy hayotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – T.: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3818-sonli "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risida"gi qarori.
3. "Temur tuzuklari" – Rahimov J. Tahriri. – Toshkent: Shodlik nashriyoti, 2018.
4. Brion M. Menkim, Sohibqiron – Jahongir Temur. – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2014. – 5-6 b.
5. Huart, C. (1902). *History of the Arabs and Islam in Central Asia*. Paris: Leroux.
6. Barthold, V.V. (1963). *Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya* "Turkestan in the Era of the Mongol Invasion". Moscow: Nauka.
7. Beveridge, A. (1909). *The Tuzuk-i-Timuri, or Memoirs of Timur*. London: Royal Asiatic Society.
8. Amir Temur jahon tarixida. – T.: Sharq, 1996. – 296 b.